BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg

Klassitsizm san’atning o’ziga xos uslubi sifatida

Allayarova Marhabo Mavlonovna
Samarqand davlat pedagogika instituti
Milliy g`oya va falsafa kafedrasi dotsenti
allayarova.marhabo@gmail.com

Annotatsiya:
Mazkur maqola estetikaning asosiy mavzularidan biri san’atning falsafiy masalasiga qaratilgan bo’lib, unda Yevropa yangi davr estetikasida san’atning klassitsizm - ijodda normativlik, ratsionallik, shakl mukammaligi tamoyillariga asoslanuvchi yo’nalishi tahlil qilingan. Klassitsizmning estetik konsepsiyasi asosida turli qarash va yondashuvlar yuzaga kelganligi, bu san’atning ijtimoiy hayotdagi ko’pfunksionallik xususiyat va vazifalarini yanada oshirishga qaratilganligi yoritilgan. San’atning bugungi kundagi ijtimoiy hayotdagi o’rni va uning oldida turgan muammolarni falsafiy tahlil qilish va aniglash zaruriyati o’rganilgan.

Kalit so’zlar: estetik g‘oya, san’at, ezgulik, san’at asarlari, go’zallik, simmetriklik, mutanosiblik (proporsiya) me’yor, uyg’unlik (garmoniya) xususuyatlari, san’arkor, ruhiy substansiya.

CLASSICISM AS A SPECIFIC STYLE OF ART

Allayarova Marhabo Mavlonovna
Samarkand State Pedagogical Institute
Associate Professor of the Department of National Idea and Philosophy
E-mail: allayarova.marhabo@gmail.com

Abstract
This article is devoted to one of the main topics of aesthetics — the philosophical issues of art. It analyzes classicism in the aesthetics of the modern European period as an artistic movement based on the principles of normativity, rationality, and perfection of form in creative activity. The article highlights that various views and approaches emerged on the basis of the aesthetic concept of classicism, aimed at enhancing the multifunctional characteristics and social functions of art in public life. The necessity of philosophically analyzing and identifying the role of art in contemporary social life and the problems facing it today is also examined.

Keywords
aesthetic idea, art, goodness, works of art, beauty, symmetry, proportionality, norm, harmony, artist, spiritual substance

Классицизм как своеобразный стиль искусства

Аллаярова Мархабо Мавлоновна
Самаркандский государственный педагогический институт
доцент кафедры «Национальная идея и философия»
E-mail: allayarova.marhabo@gmail.com

Аннотация

Данная статья посвящена одной из основных тем эстетики — философским проблемам искусства. В ней анализируется классицизм в эстетике европейского Нового времени как направление искусства, основанное на принципах нормативности, рациональности и совершенства формы в творчестве. Освещается, что на основе эстетической концепции классицизма возникли различные взгляды и подходы, направленные на усиление многофункциональных особенностей и социальных функций искусства в общественной жизни. Также рассматривается необходимость философского анализа и определения роли искусства в современной общественной жизни и проблем, стоящих перед ним сегодня.

Ключевые слова: эстетическая идея, искусство, добро, произведения искусства, красота, симметрия, пропорциональность, норма, гармония, художник, духовная субстанция.

Kirish. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolar -milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti ma’naviyat tizimida global miqyosidagi disgarmonizasiyalashish – ichki uyg‘unlikning buzilishini yuzaga keltirmoqdaki, ushbu jarayon insoniyat sivilizasiyasini halokat sari eltuvchi xavf hisoblanadi. Ushbu muammo nafaqat bizni mintaqamizda, balki butun insoniyatga xavf solayotganligini O‘zbekiston davlat raxbari Sh.Mirziyoyev alohida ta’kidlangan edi: “Ma’lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o‘zini o‘ylash, mehnatga, oilaga engil qarash, iste’molchilik kayfiyati turli yo‘llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti»[1.1].

Mazkur xavfni bartaraf etishning asosiy yo‘llaridan biri – bu fanni insonparvarlashtirish bo‘lib, bunga uni (fanni) din bilan badiiy – estetik tamoyillar asosida sintezlashtirish, uyg‘unlashtirish orqali erishiladi. Shunga ko‘ra, san’atning hozirgi global miqyosda xavf solayotgan ma’naviy inqirozni bartaraf etishdagi roli oshib bormoqda. Ushbu falsafiy muammo Yevropa yangi davr klassitsizmida san’atning ana shunday mohiyati ochib berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, kontent tahlil, tizimli tahlil, germenevtika kabi usullardan foydalanildi. Hozirgi davr san’atning mohiyati va uning muammolarini ilmiy falsafiy tahlil qilgan Arastu, R.Dekart, Жан Жак Русco, T.Tasso, N.Bualo kabi olimlarning tadqiqotlarida kuzatiladi. Lekin uning estetik va falsafiy ahamiyati I.Kant, Gegel, rus olimlaridan Jirmunskiy, Vorobey Yu.D. Voronin R.E., bu borada O‘zbekiston faylasuf olimlari S.Shermuxammedov, E.Umarov, T.Maxmudov, O.G‘aybullaev, Oydin Abdullayevalar ilmiy ishlarida uning ayrim jihatlari o‘rganilgan. [8.] Lekin keyingi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlarda san’atning badiiy tanqidiy, psixologik hamda estetik jihatlari tadqiqi olib borilsada, jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni va shaxs ma’naviy olamining muhim atributi sifatidagi xususiyatlari falsafiy jihatdan o‘rganilishga ehtiyoj yuzaga keldi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yevropada fan-texnika inqilobi sharpasi endigina kezaboshlagan davrda fransuz ma’rifatparvari Jan Jak Russo (1712 –1778) dinga muxolifatlikda bo‘lgan ilm-fan va yuksak estetik g‘oyadan mahrum san’at ezgulikka, insonni axloqan poklashga xizmat qilmasligi haqidagi qarashini ilgari surgan edi. U ana shu ruhdagi san’at asarlari, ilm-fan yutuqlari kishilardagi

insoniylik xislatlariga darz ketkazib, ulardan shubha, gumon, qo‘rquv, bemehrlik, befarqlik, yomonlik kabi xislatlarni paydo qilmoqda, deb ko‘rsatgan edi.

Lekin XVI asrda Yevropa san’atinig klassitsizm- ijodda normativlik, ratsionallik, shakl mukammaligi tamoyillariga asoslanuvchi yo’nalishi yuzaga kelgan edi. Klasssitizmning estetik konsepsiyasi asosida fransuz faylasufi Rene Dekart(1596-1650)ning ratsionalizm (lot. Ratsionalis-aql), bilimlarning yagona manbai aql, tafakkurdir, degan qarash yotadi. Klassitsizm nazariyachilari (T.Tasso, N.Bualo o’z qarashlariga ko’ra panteistlar bo’lib, ularning fikricha, go’zallik tabiat(borliq)ga ob’ektiv tarzda xos bo’lgan simmetriklik, mutanosiblik (proporsiya) me’yor, uyg’unlik (garmoniya) xususuyatlari, ularni faqatgina san’at mukammal shaklda tasvirlab, gavdalantirib bera oladi.

Buning uchun san’arkor ruhiy substansiya-Xudoni ahglab etmog’i, bunga erishish uchin esa u tug’ma g’oyaga ega bo’lmog’i kerak.

Fransuz rassomi Nikola Pussen(1594-1665) “tug’ma g’oya”ga ega bo’lgan shu davrning taniqli san’atkorlaridan biridir. U mifologik syujetlarni klassitsizmning me’yoriy(normativ), ideallashtirish tamoyili bilan muvofiqlashtirgan holda o’z asarlarida go’zallikni panteistik ruh inson va tabiat munosabati uyg’unligida tasvirlaydi. Va bunda ramziylikdan ifoda vositasi sifatida foydalanadi. Rassomning “Tankred va Erminiya, “Arkadiyalik cho’ponlar”, “Peyzaj” hamda “ Yil fasllari” seriyasidagi asarlari ana shu uslibda yaratilgandir. [2:118]

Bir qator (buyuk) san’atkorlar panteizmi ta’limotiga tayanganlari holda klassitsizm uchun xos bo’lgan ratsionalizm, dogmatizmni bartaraf etishga muvaffaq bo’ladilar. Va qat’iy me’yorlik, shartlilikdan xalos bo’lgan, his – tuyg’u va tafakkur uyg’unligiga asoslangan yangi tipdagi klassitsizm yo’nalishini yaratadilar. Shundaylardan biri yangi davr nemis adabiyotining asoschisi, mutafakkir shoir Iogann Volfgang Gyote (1749 – 1932) bo’lib, uning estetik qarashlari keyingi davr badiiy estetik fikri taraqqiyotiga katta ta’sir ko’rsatadi.

U san’atni tabiatga taqlid sifatida talqin qiladi, lekin hodisalarning oddiy nusxasi emas, balki ularning ramziy usuldagi umumlashtirilishidir. Bunda ramz sharqona panteizm, ya’ni kishining barcha narsa hodisalarga yagona substansiya – Xudoning atributlarini ko’rishi, unga bo’lgan ilohiy muhabbatini va ana shu yuksak his – tuyg’u o’laroq U (Xudo) bilan qo’shilib ketishini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, Gyotening ijodiy uslubi sharqona panteizm, dunyoviy muhabbatni ilohiy ishq orqali uyg’unlash g’oyasi bilan sug’orilgan Hofiz Sherozning tasavvufiy she’riyati ta’siri ostida shakllangan edi. Uning mashhur “Sharq va G’arb devoni” ana shu ijodiy ta’sir natijasida yaratiladiki, buni Gegel o’zining “Estetika” nomli asarida Hofiz va Gyotening she’rlarini qiyosiy tahlil qilish asosida ko’rsatib beradi. Xususan u shunday deb yozadi: “ U yoshi bir joyga borib qolganiga qaramsdan Sharq nafasidan ruhlanib qon tomirlarida she’riyat jo’sh uradi va erkin, ruh – fazo hissiyot tarafiga o’tib oladi. [3:80]

Yevropa yangi davri XVII asrning o’rtalaridan boshlab o’rta asr feodalizmi kapitalistik munosabatlar bilan almashina boshlaydi. Va buning natijasi o’laroq ijtimoiy hayotda gumanizm g’oyalarning maqeiga putur etib, ularning o’rnini egoizm, individualizm egallay boshlaydi. Mazkur ob’yektiv jarayon dialektikasi, ayniqsa, san’atda o’zining yorqin ifodasini topadi. Bu davrdagi ilg’or fikrli san’atkorlar yovuzlik mifologemasiga murojaat qilganlari, undan ijodiy uslub sifatida foydalanganlari holda asarlar yaratadilar. Bunda diniy mifologema– ramziy iblis obrazi badiiy tasvir vositasi vazifasini o’taydi.

“Insoniy qalbga kuch beruvchi har bir tuyg’u, jo’shqin zavq-shavq, har bir teran qalb ehtirosi, turfa konkret hayot,-deb yozadi faylasuf,- san’atning jonli materialini tashkil etadi va ideal uning tasviri

va ifodasidir".[4:179] Va yana: "insoniylik haqiqiy go'zallik va san'atning markaziy nuqtasi va mazmunini tashkil qiladi".[5:10]

Gegel san'atning maqsadini uning ana shu qayd etilgan predmeti bo'yicha belgilaydi: "Axloqiy o'zgartirish san'atining pirovard maqsadi sifatida bir qadar oliy nuqtai nazar sanaladi... San'at... haqiqatni faqat hissiy shaklda yoritadi, murosa topgan ziddiyatlarni tasvirlaydi, zero, uning pirovard maqsadi voqelikni ana shunday tasvirlash va yoritishdan iborat, demak, bu maqsad yolg'iz uning o'zida mavjuddir.[6:126]

Miltonning hamyurti Bish Shelli (1792 – 1822) majoziy (allegorik) uslubda yozilgan "Malika Mab" poemasida iblis obrazi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni toptovchi kuch qiyofasida tasvirlanadi.

Gyotening falsafiy "Faust" asarida tasvirlangan ijtimoiy, axloqiy muammolar ham Milton, Shelli ijodiga xos mifopoetik uslubda talqin qilinadi. Asardagi Mefistopel obrazi tarixiy yozuvlikning shu davr – XVIII asrda yangi qiyofada namoyon bo'lishining mifologiyaviy timsolidir.

XVII asrning oxirlarida, klassitsizmning ratsionalistik, me'yoriylik tamoyillarini bartaraf etishga qaratilgan qarashlar negizida san'atda emotsionallik, his – tuyg'uning mavqeini fikr – shuuriylikka nisbatan belgilovchi jihat deb hisoblaydigan ekzistensializm, sentimentalizm, yo'nalishlari yuzaga keladi. Mazkur yo'nalish tamoyillari asosida ijod qilgan san'atkorlar ham yovuzlik ramzi– iblis mifologemiyasiga murojaat qiladilar. Ular mazkur mifologemiyadan ijtimoiy hayotda yuksak gumanistik ideallar va ma'naviy-axloqiy tamoyillarning qadrsizlanib borishi o'rtasidagi ziddiyatning tobora keskinlashib borayotganligini konkret shaxs ruhiy olami, borlig'i tasviri orqali ifodalash uchun foydalanadilar.

Mazkur yo'nalishlar, xususan ekzistentsializm keyinchalik Yevropa falsafiy – estetik fikrida etakchi mavqega ega bo'ladi va uning tamoyillari badiiy ijod usuli (metodi) bo'lib xizmat qiladi.

Inson borlig'i, mavjudligi uning ruhiy olami ekzistentsializm (lot. Exsistentia – mavjudlik) ta'limotining asosiy masalasi hisoblanadi. Ushbu ta'limotga ko'ra, inson borlig'i mavjudligi aqliy (ratsional) bilish bilan anglab bo'lmaydi, uni faqat noratsional, intuitiv bilish orqali inkishof etish mumkin. Bunday bilish inson ruhiy borlig'i, mavjudligini anglab olishning asosiy vositasi hisoblanadi. Shunga ko'ra aksariyat ekzistentsializm namoyondalari o'zlarining qarashlarini ilmiy uslubda emas, balki, badiiy asar shaklida bayon etadilar. Va ular unda mifologemiyaviy ramzlarga murojaat qiladilar. Eksiztentsializmning yirik namoyondalaridan biri Albert Kamyu (1913 – 1960)dir. Uning "Vabo" romani mifologemaviy uslubda yozilgan falsafiy asardir.

Romanda tasvirlanishicha, Oran degan chekka bir shaharda vabo epidemiyasi tarqaladi va shahar o'rab olinib, undan hech kimning chiqib ketishiga yo'l qo'yilmaydi. Shahar uzra ommaviy o'lim sharpasi keza boshlaydi, kishilar vaboni yuqtirishdan shubhalanib bir – biridan qo'rqib, oxir zamon tahlikasi bilan yashay boshlaydilar. Kishilarni ruhiy tushkunlik, iztirob qamrab oladi.

A.Kamyu talqinidagi vabo ramziy obraz bo'lib, yozuvchi undan insoniyat vujudi, hayotda asrlar osha yashab kelayotgan, aytish joiz bo'lsa, dunyoviy yozuvlik mikrobining eng yangi davr evropa ijtimoiy muhitida bijg'ib urchiy boshlanganligini tasvirlash uchun foydalanadi. Ya'ni vabo – bu o'tgan asrda paydo bo'lgan yovuzlikning yangi qiyofada namoyon bo'lgan shakli – fashizmning misolidir.

A.Kamyu roman ustida ishlaganligiga oid kundaligiga shunday deb yozgan edi: "Men vabo yordamida yozuvlik, jaholat hukmron bo'lgan muhitni va unda bizlar qanday azob-uqubatlarni boshdan kechirganligimizni tasvirlab bermoqchiman. Ayni paytda ushbu talqinni bir butun holda mavjudlikka tadbiq etmoqchiman". [7:19]

Muxtasar qilib aytganda, yozuvchi vabo timsoli yordamida o'zining yovuzlik tazyiqidagi ijtimoiy borliq, muhitda inson yashashi, mavjudligining mohiyat, maqsadini aniqlash haqidagi eksiztentsiyaviy– falsafiy qarashini ifodalaydi.

XIX asrning o'ttizinchi yillaridan boshlab evropada shakllana boshlagan san'atdagi realism(lot.realis- moddiy, voqieiy) yo'nalishi namoyandalari ham, garchi real voqeylikni qanday bo'lsa shundayligicha tasvirlash, tipiklashtirish tamoyolini belgilovchi deb hisoblasalar-da, lekin ular mifologemaviy ramziylikdan badiiy vosita sifatida foydalanadilar. O'z vaqtida O.Balzak, A.S.Pushkin, N.B.Gogol, L.Tolstoy, A.P.Chexov kabi buyuk realist yozuvchilar aksariyat asarlarini ana shu uslubda yaratganlar.

Xulosa

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadigan xulosa shuki, san'at o'ziga xos estetik xususiyati bilangina emas, balki ma'naviy tarbiya vositasi vazifasini o'tashligi - jamiyat a'zolarining ma'naviy ehtiyoji, axloqiy, hayotiy faoliyatining motiviga aylantirish maqsadi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra badiiy ijodkorning yaratgan san'at asari estetik tarbiyani ana shu maqsadga qaratilgan yo'nalishda amalga oshirishning muhim vositasidir. Zotan, faqat san'atgina, boshqa ijtimoiy ong shakllaridan farqli ravishda, ma'naviy lazzatlantirish jarayoni bilan birgalikda kechadigan polifunksionallik (ko'pvazifani bajarishlik) tabiatiga ega noyob ma'naviy fenomen (hodisa) dir. Shu jumladan san'at asari voqelikni in'ikos etish shakli bo'lib, u orqali inson voqelikni o'z tafakkurida, ma'naviy olamida in'ikos etadi, U ijodkorning estetik orzularisiz namoyon bo'la olmaydi. Bu jarayonda san'at asarlarini yaratishga yo'naltirilgan badiiy ijod insonni o'z ma'naviy borlig'ini anglash interpretasiyasi vazifasini o'taydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 avgustdagi "O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash "Ilhom" jamoat fondini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3184-sonli Qarori
2. 2.Olloyorov M. San'at ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida. SamDU.2013 y., 18
3. 3. Гегел Г.В. Эстетика в 4 томах, том 2. М., "Искусство", 1969, стр.80.
4. 4 . Гегел Г.В.Ф. Сочинения в XIV томах, том XII, М., 1958, стр.179.
5. 5. Гегел Г.В.Ф. Сочинения в XIV томах, том XIII, стр.10.
6. 6. Гегел Г.В. Санъатнинг мақсади. Маҳмуд Абдуллаев таржимаси.// "Шарқ юлдузи" журнали, №2, 2011, 126-бет.
7. 7. Великовский С. «Проклятые вопросы» Камю. // Альберт Камю. Избранные. М., издателство «Правда», 1990, стр. 19.
8. 8. Аристотел. Поэтика. Поэзия санъати ҳақида.Тошкент.Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.1980,7-бет., Гегел Г.В. Эстетика в 4 томах, том 2. М., "Искусство", 1969, стр.80., Руссо Жан Жак. Илм-фан ва санъат равнақи аҳлоқнинг покланишига ёрдам берадими? // "Жаҳон адабиёти" журнали, 2010 йил, июн сони, 150-бет., Воробей Ю.Д. Диалектика художественного творчества. –М.1984,. Умаров Э. Эстетика. Тошкент, 1996, 94-95-бет.